

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
ISSN: 3030-3001
Том 1, Выпуск 3
**OLIY FILOLOGIK TA'LIMDA MASHQLARI USTIDA DIDAKTIK
ISHLASH MEKANIZMI**

Khazratqulova Ozoda Abdug'aniyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: ohazratqulova36@gmail.com
Tel: 996881303

Annotatsiya. Mashq – nutqiy ko'nikmalarini hosil qilish yoki takomillashtirish va malakalarini rivojlantirish maqsadida til (nutq) mashqlari yoki harakatlarni maxsus tashkil etilgan holda takroran bajarish mumkin. Mashq o'quv vositalari toifasiga mos ravishda, ya'ni ularning ierarxiyasidagi eng past qadam sifatida ko'rib chiqilsa, o'qituvchi va talabalar faoliyatini boshqarish vazifasini va ularning o'zaro munosabatlarini bajarishga muayyan sharoit yaratadi.

Kalit so'zlari. Yozma mashqlar, og'zaki mashqlar, mashq talabi, til va nutq, komponent, sheva, kommunikativ, nokommunikativ.

**THERE IS A MECHANISM OF DIDACTIC WORK ON EXERCISES IN
HIGHER PHILOLOGICAL EDUCATION**

Abstract. Exercise - language (speech) exercises or actions that can be performed repeatedly in a specially organized manner in order to form or improve speech skills and develop competence. When viewed as a category of teaching aids, that is, as the lowest step in their hierarchy, the exercise creates certain conditions for the task of managing the activities of teachers and students and their interactions.

Key words: Written exercises, oral exercises, exercise requirement, language and speech, component, dialect, communicative, non-communicative.

**МЕХАНИЗМ ДИДАКТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ НАД УПРАЖНЕНИЯМИ В
ВЫСШЕМ ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация. Упражнение – языковые (речевые) упражнения или действия могут выполняться неоднократно в специально организованном порядке с целью создания или совершенствования речевых навыков и развития умений. Если упражнение рассматривать в соответствии с категорией средств обучения, то есть как низшую ступень в их иерархии, то оно создает определенные условия для выполнения задачи управления деятельностью преподавателя и учащихся и их взаимодействием.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 3

Ключевые слова. Письменные упражнения, устные упражнения, требования к упражнениям, язык и речь, компонент, диалект, коммуникативный, некомуникативный.

Kirish. Mashq talabalarining faolligini ta'minlaydi, uni amalda modellashtiradi. Ularning ehtiyojlari sohasiga, bilim, ko'nikma va malakalariga murojaat qilishi, ularning aniq bajarilishini ta'minlashi lozim. Mashqlar odatda ikki asosiy xususiyat – maqsad va unga erishish vositasi bilan tavsiflanadi. Bu maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: talabalarga til bilimlarini etkazish, til va nutq malakalarini shakllantirish yoki takomillashtirish hamda nutqiy malakalarini rivojlantirish.

Bevosita maqsadga (vazifaga) erishishning asosiy vositasi o'quv faoliyati bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: taqlid qilish, farqlash, almashtirish, o'zgartirish. Mashqlarning tarkibiy modeli uchta asosiy komponentga ega: a) ko'rsatmalar, b) materialni o'rganish mashqlari va v) nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari. Har bir mashqni 2 tarkibiy qismga bo'lish mumkin: maqsadli va ijro etuvchi – nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish bilan qo'shib olib boriladigan mashqlar.

Mashqlarning maqsadli jihati ko'rsatmalar, topshiriq va boshqalar shaklida taqdim etiladi. Topshiriq muayyan talablarga javob berishi kerak:

a) talabalar harakatlarini rag'batlantirish va ular uchun aniq vazifa qo'yish tarzida shakllantiriladi;

b) nutqoldi yo'nalganlik omillarini – vaziyatni aks ettiradi (kim? kim bilan? nima haqida? nima uchun?);

v) muayyan nutq mahsuli va natijasini maqsad qilib olish.

Ko'rsatmalarning asosiy xususiyati – ularning kommunikativ yoki nokommunikativ yo'nalganligidir.

Guruhda o'quv jarayonida etakchi o'rinni kommunikativ topshiriqlar, uyda esa, ayniqsa, talabalarining yozma ishlari – o'qitish, ya'ni til strukturasi elementlarini tushunishga qaratilgan topshiriqlar beriladi.

Ko'rsatmalar mashq bajarish uchun namunalar (modellar) va/yoki qoidalar bilan birga bo'lishi kerak.

Shu o'rinda – mashq usullari – talabaning real amaliy harakatlarini ta'minlovchi, uning ichki munosabatini mujassamlashtiruvchi, munosabatni moddiylashtiruvchi, ikkinchisiga ko'rinadigan ta'sirlar turidir. Mashq va topshiriqlar yordamida talabalarining faolligi tashkil etiladi va uning ijobiy motivlari (ishtiyoq) (topshiriqlar, talablar, musobaqalar shaklida alohida va guruh faoliyati uchun turli xil vazifalar,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 3

namunalar va misollar ko'rsatish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish) rag'batlantiriladi.

Jamol Jalolovning mashq haqidagi mulohazalari e'tiborga molikdir. **Mashqlar sistemasi.** Chet tilini o'rganish mashqlar bajarishdan iborat jarayondir deyilsa, mubolag'a yoki xato bo'lmaydi. Bu — mashqning dinamika (harakat) tarafi. Uning statika (holat) jihati — darslikda o'quv materialini tarzida tashkil etilganligidadir. Statikadagi mashq deganda, chet til darsligida muayyan raqam yoki harf bilan belgilangan yoki maxsus ajratib ko'rsatilgan, ikki qismdan iborat, dars tarkibini tashkil etadigan o'quv-metodik kategoriya tushuniladi. Mashqning qismlari metodik adabiyotlarda “mashq talabi (sarlavhasi)” va “mashq materialini” deb yuritiladi. Mashq materialini darslikda yozilgan (harf, so'z, jumla, grafik matn) yoki o'quvchi nutqining mahsuli (tovush, so'z, jumla, og'zaki matn) bolishi mumkin.

Dinamikadagi mashq — chet tilda o'quvchi bajaradigan, harf yozish yoki tovushni talaffuz etishdan tortib, to matnni idrok etib tushunish yoki o'z fikrini bemalol bayon etishgacha bo'lgan o'quv amaliidir. Mashqlarning statikadagi ko'rinishi darslik muallifning ijod mahsulidir, dinamikada esa nutq ko'nikma va malakalari hosil qilish yo'lidagi amaliy xatti-harakatlar va urinishlardir.

“Mashq” tushunchasining qisqacha ta'rif-tavsifidan so'ng “mashqlar sistemasi” terminini ko'rib chiqamiz. Mazkur mavzu chet til metodistlari orasida to'xtovsiz munozaralarga sabab bo'lib keladi. Prof. Igor Vladimirovich Raxmanov barcha mashqlarni til va nutq mashqlari nomlari bilan ajratib yuritgan. Ayrim metodistlar asarlarida ikkala termin orasida “nutqqacha bo'lgan mashqlar” nomini ham qo'llashadi. Prof. Vulf Abramovich Buxbinder informatsion, operatsion va motivatsion mashqlar haqida tadqiqot olib borgan. Sodda qilib, ularni bilim, ko'nikma va malaka berish mashqlari, deyish joizdir. I.V.Raxmanov tasnifi Shveysariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyur til va nutq dixotomiyasi ta'limoti ta'siri natijasi, deb qaralmog'i ma'qul. V.A. Buxbinder mashqlar nazariyasi psixolingvistika ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, maktabda chet til o'qitish voqeligini aniqroq aks ettiradi.

O'zbekiston chet til metodistlarining 1970—80-yillarda bajargan ilmiy tadqiqotlarida (J. Jalolov, T. Sattorov, A. Soynazarov va b.) chet til mashqlar sistemasini o'zbekcha terminlar bilan shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar turlariga bo'linishi aniqlangan.

Shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo'llanilishida va takomillashtiruvchi mashq chet tilda fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, ya'ni bilim olish, ko'nikmani egallash va malakani o'stirishga mo'ljallangan mashqlar, deb

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 3

qaraladi. Nutqni egallash xususiyatiga ko'ra, aniqrog'i, sezgi va analizatorlarning ishtirokiga qarab, retseptiv va reproduktiv nutq mashqlari bajariladi. Mashqlar sistemasi kichik sistemalar in'ikosidir. Ular nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv) mashqlari hamda til materiallari (leksika, grammatika, talaffuz) mashqlari nomlari bilan ataladi. Nutq jarayonida til materialini egallashda sezgilar ishini aks ettiruvchi retseptiv leksik, retseptiv grammatik va reproduktiv leksik ham da reproduktiv grammatik mashqlar ham bo'ladi. Chet tilida og'zaki va yozma mashqlar bajariladi. Og'zaki mashq dialog va monolog mashqlariga hamda og'zaki bajariladigan leksik, grammatik va talaffuz mashqlariga bo'linadi. Yozma mashqlar fikmi yozuvda ifoda etish (yozma nutq)ni va yozish (yozuv texnikasi)ni o'rgatishga bag'ishlanadi.

O'qish mashqlari grafik matnni o'qib axborot olish va o'qish lexnikasini o'zlashtirishga mo'ljallanadi. Bayon etilganlarga yana shuni ilova qilish mumkinki, mashq va matn, mashq va she'r, mashq va harf/tovush, mashq va rasm kabi so'z birikmalari g'ayrimetodik tushunchalar sirasiga kiradi, chunki iboralardagi ikkinchi so'zlar mashqning materiali, ya'ni mashqning obykti yoki mahsulidir. Ona tili va ikkinchi tilda bunday ta'birlar erkin qo'llanaverishi mumkin. Bunga sabab, ularni o'qitishda qoidalar muntazam tarzda singdiriladi, grammatik tahlil qilinadi, she'rlar ifodali o'qiladi¹.

Nutqda to'g'ri talaffuzdan tashqari ohang masalasi ham mavjud bo'lib, u ayol va erkak (o'g'il va qiz) kishilarda ma'lum ma'noda farqlanadi. Shuning uchun darsda ikkala jinsdagi notiqlar nutqidan ham baravar foydalanish o'rinlidir.

Talabalarni matn ustida ishlashga yo'naltirish ham etarlicha samara beradi². Ularga ibratli hikoyatlar, she'riy va dramatik matnlarni yodlab, ifodali aytib berish topshirilishi mumkin. Nasriy matnlarni yodlashga avval unchalik ehtiyoj bo'lmagani bois uni yod olish va aynan so'zlab berishda dastlab talabalar qiynaldi. Darsni har tomonlama samarali tashkil qilishni ko'zda tutib, talabalar matnlarni, hikmatli so'zlarni yoddan aytayotganda ularning og'zaki nutqidagi tovushlar talaffuzi, urg'u va ohang bilan bog'liq xato-kamchiliklar aniqlandi, ularni bartaraf qilish uchun maxsus mashqlar tavsiya qilinadi. Talabaning nutqi ta'sirchan, jozibali bo'lishi uchun unda ulkan so'z boyligi ham bo'lishi kerak.

M.Usmonova tomonidan tuzilgan "Mashqlar to'plami"da berilgan mashqlar asosan grammatik malaka hosil qilishga qaratilgan bir tilli mashqlardan iborat bo'lsa-

¹Jalolov, Jamol Jalolovich. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 432 b.

²Кошғарий Махмуд. Девону луғатит турк. 3 томлик. Т.І. – Т.: Ўзбекистон ФА, 1976. Кошғарий Махмуд. Девону луғатит турк. 3 томлик. Т.ІІ. – Т.: Ўзбекистон ФА, 1976. – 47–83 б.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 3

da, 12 ta mashqdan iborat variantlar majmuasining oxirgi mashqlariga bog‘lanishli matnlar va tarjima mashqlari kiritilgan bo‘lib, ular talabalarning so‘z boyligini, grammatik mavzularni qanchalik puxta o‘zlashtirganliklarini aniqlash, egallangan bilim va ko‘nikmalarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishlarini tekshirib ko‘rishga qaratilgan topshiriqlar berilgan.³

Mashg‘ulotlar davomida yuzga yaqin ibratli hikoya, she‘r va hikmatli so‘zlar yodlanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi talabaga zaruriy nutqiy malakalarning shakllanish sharoitini yaratib berishi lozim. Talaba o‘z tilida ham og‘zaki, ham yozma shaklda mantiqan izchil, nutq sharoitiga mos ravishda fikr ifodalay olishga erishishi uchun zarur so‘z boyligiga, adabiy talaffuz ko‘nikmasiga ega bo‘lishi; imloviy savodxon va ijodiy tafakkur sohibi bo‘lishi talab etiladi. Bu borada talabalarda nutqiy malakani kompleks tarzda hosil qilish usuli yaxshi samara beradi.

Til o‘rgatish darslarida nutqiy malakalarni shakllantiruvchi asosiy o‘quv materialini bu mashq va topshiriqlar tizimidir. Tadqiqotchi T.G‘anievning ona tili bo‘yicha mashqlar bajarish jarayonida talabalarning bilim faoliyatini faollashtirishga bag‘ishlangan tadqiqoti⁴ ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, ona tili o‘qitishda, ayniqsa, adabiy talaffuz bilan bog‘liq muammolar hali o‘z echimini topgan emas. Bu borada ijobiy natijalarga erishish mashq yoki topshiriqning sifati, berilishiga bog‘liq. Agar topshiriq maqsadli, puxta o‘ylangan holda tuzilsa, ya‘ni birvarakayiga uch yoki to‘rt nutqiy ko‘nikmani shakllantirishga imkoniyat yarata olsa, nihoyatda foydali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov, Jamol Jalolovich. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.
2. Кошғарий Махмуд. Девону луғатит турк. 3 томлик. Т.І. – Т.: Ўзбекистон ФА, 1976. Кошғарий Махмуд. Девону луғатит турк. 3 томлик. Т.ІІ. – Т.: Ўзбекистон ФА, 1976. – 47–83 б.
3. Усмонова М., Азларов Э., Шарипов Ф. Ўзбек тили (олий ўқув юртлари рус гуруҳлари учун қўлланма). –Ташкент: Ўқитувчи, 1991. –304 б.
4. Ғаниев Т. Она тили бўйича машқлар бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билим фаолиятини фаоллаштириш. Пед.фанлари номзоди диссертацияси

³Усмонова М., Азларов Э., Шарипов Ф. Ўзбек тили (олий ўқув юртлари рус гуруҳлари учун қўлланма). – Ташкент: Ўқитувчи, 1991. –304 б.

⁴Ғаниев Т. Она тили бўйича машқлар бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билим фаолиятини фаоллаштириш. Пед.фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Т., 1991. – 12 б.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 3

автореферати. – Т., 1991. – 12 б.

5. Khazratkulova O.A. The role of the concept in expressing the linguistic picture of the world and related events // *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*// ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 08, August 2022 SJIF2022=8.252 P.67-72
6. Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlarini tuzish metodikasi. Monografiya. – Toshkent, Donishmand ziyo, 2021. 156 b.
7. G'aniev T. Ona tili bo'yicha mashqlar bajarish jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish. Ped. fan. nom. diss. avtoref. – Т., 1991. – 22 b.
8. Jalolov J.J., Mirzaev I.K. F. I. Buslaevning til ta'limiga doir qarashlari // *Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari*. – Toshkent: TDPU, 2008. – 127–131 b.
9. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 160 b.
10. Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Т.: Fan, 1995. – 108 b.